



AKSIYADORLARNING YILLIK UMUMIY YIG'ILISHINING 02/2026- sonli BAYONNOMASI

Manzil: "O'zsanoatqurilishbank" ATB
Toshkent sh., Shahrisabz ko'chasi, 3-uy.

2026 yil 30 iyun
Ish vaqti: 11.00-16.00

Bank Kengashi tomonidan 2026 yil 5 iyunda O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlari hamda "O'zsanoatqurilishbank" ATB ustaviga asosan, Aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishini masofadan turib elektron ovoz berish xizmati <http://evote.uz/> orqali o'tkazish va yig'ilish kun tartibini belgilash to'g'risida 2026/10-sonli qarori qabul qilingan.

2026 yil 6 iyun holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reestriga asosan bank aksiyadorlariga umumiy yig'ilish o'tkazish kuni, vaqti, joyi, kun tartibi va kun tartibiga kiritilgan masalalar to'g'risida xabar "Xalq so'zi", "Biznes Daily Birja" Korporativ axborot yagona portali, bankning rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan hamda evote.uz platformasi orqali aksiyadorlarga sms xabarlar yuborilgan.

Shuningdek, mazkur xabar "Xalq so'zi" respublika nashrining joriy yil 5 iyundagi 114(9285)-sonida, "Narodnoye slova" respublika nashrining 5 iyundagi 113(9230)-sonida, "Biznes Daily Birja" nashrining 9 iyundagi 44 (3342).

"Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqini himoya qilish to'g'risida"gi qonunning 61-moddasi hamda Bank Kengashining qaroriga asosan umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxatini tuzish sanasi 2026 yil 24 iyun deb belgilandi. Yig'ilishda mazkur sanaga shakllantirilgan aksiyadorlar reestrda amaldagi qonunchilikka asosan faqat oddiy aksiya egalari ovoz berish huquqiga ega.

2026 yil 24 iyun holatiga Bank ustav kapitali 4.628.941.927.804 (to 'rt trillion oltiyuz yigirma sakkiz milliard to 'qqizyuz qirq bir million to 'qqiz yuz yigirma yetti ming sakkizyuz to 'rt) so'mni tashkil qiladi va u quyidagi aksiyalarga bo'lingan:

- umumiy qiymati 4.621.911.927.804 (to'rt trillion olti yuz yigirma bir milliard to'qqiz yuz o'n bir million to'qqiz yuz yigirma yetti ming sakkiz yuz to'rt) so'm bo'lgan nominal qiymati 19 (o'n to'qqiz) so'mlik 243.258.522.516 (ikki yuz qirq uch milliard ikki yuz ellik sakkiz million besh yuz yigirma ikki ming besh yuz o'n olti) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiya;
- umumiy qiymati 7.030.000.000 (yetti milliard o'ttiz million) so'm bo'lgan nominal qiymati 19 (o'n to'qqiz) so'mlik 370.000.000 (uch yuz yetmish million) dona egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiya.

Aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishining vakolatli ekanligi (kvorum mavjudligi) bo'yicha ma'lumot <https://evote.uz> platformasidan olindi.

"O'zsanoatqurilishbank" ATB aksiyadorlarining reyestriga ko'ra, 2026 yil 24 iyun holatiga aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxatiga jami 243 258 522 516 (ikki yuz qirq uch milliard ikki yuz ellik sakkiz million besh yuz yigirma ikki ming besh yuz o'n olti) dona oddiy aksiya egasi bo'lgan 11 517 (o'n bir ming besh yuz o'n etti) nafar aksiyador kiritilgan.

Aksiyadorlar ro'yxatining to'g'ri rasmiylashtirilganligi va aksiyadorlar nomidan umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan vakillarning vakolatlari "eVOTE" – Elektron ovoz berish xizmati tomonidan tasdiqlandi va <https://evote.uz> platformasidan olingan ma'lumotga ko'ra, yig'ilishda ishtirok etish uchun umumiy ovoz beruvchi aksiyalarning 243 258 522 516 (ikki yuz qirq uch milliard ikki yuz ellik sakkiz million besh yuz yigirma ikki ming besh yuz o'n olti) dona yoki 95,81% foiziga egalik qiluvchi 5 (besh) nafar aksiyador hamda aksiyadorlar vakillari elektron ro'yxatdan o'tganligi va bank aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi vakolatli ekanligi, ma'lum qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 18 avgustdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalar va rjorot banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-283-sonli qaroriga asosan Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi bank ustav kapitalidagi o'ziga tegishli aksiya paketlari bo'yicha aksiyador vakolatlarini amalga oshirish va boshqarish funksiyalarini ishonchnoma asosida cheklanmagan muddatga Iqtisodiyot va moliya vazirligiga berilishi belgilangan. (Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining Iqtisodiyot va moliya vazirligiga berilgan OYU-07/08-737-sonli ishonchnomasi).

<https://evote.uz> platformasidan olingan ma'lumotlar ilova qilinadi.

"O'zsanoatqurilishbank" ATB aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun Bank Kengashi raisi O.R.Isakov yig'ilish raisi etib saylandi.

Aksiyadorlarning navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi ishchi a'zolari quyidagi tarkibda tuzildi:

Yig'ilish hay'ati: O.R.Isakov (yig'ilishga raislik qiluvchi).

Sanoq komissiyasi: A.Vizer, X.Sattarov, X.Umarov.

Yig'ilish kotibi: D.Abdukadirov.

Aksiyadorlar navbatdagi yillik umumiy yig'ilishining kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilgan:

1. Bank Kengashi va Boshqaruvining 2025-yil yakunlari bo'yicha faoliyati hamda bankni rivojlantirish strategiyasining bajarilishi bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobot.
2. Bankning 2025-yil yakunlari bo'yicha yillik hisobotini tasdiqlash.
3. Bank foydasini taqsimlash va Kengashning bitta mustaqil a'zosiga 2026-2027 korporativ yil uchun to'lanadigan mukofot va kompensatsiyaning eng yuqori miqdorini belgilash.

4. 2026-2027 korporativ yili uchun Bank Boshqaruvi a'zolariga to'lanadigan mukofotning maksimal miqdorini belgilash.

5. Bank Boshqaruvi raisi va Boshqaruv a'zolarining vakolatlarini 1 (bir) yilga tasdiqlash to'g'risida.

6. 2026 moliya yili bo'yicha Bankda tashqi auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun tashqi auditor tashkilotini va ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p xaq miqdorini belgilash.

7. "O'zsanoatqurilishbank" ATB Ustaviga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarni tasdiqlash.

8. Bankning korporativ boshqaruv tizimi bo'yicha mustaqil xalqaro baholash yakunlari to'g'risida hisobot (MChJ "PRICEWATERHOUSE COOPERS").

9. "O'zsanoatqurilishbank" ATB Bank guruxini korporativ boshqarish konsepsiyasini tasdiqlash.

10. Balansdan tashqari hisob raqamlardagi aktivlarni o'ndirish bo'yicha 2025 yil hisoboti.

Kun tartibidagi birinchi masala. "2025 yil yakunlari bo'yicha bank Kengashi va Boshqaruvining Yillik hisobot loyihasi hamda bankning rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha qilingan ishlar yuzasidan quyidagilar ma'lum qilinadi:

Hisobot tayyorlashda O'zbekiston Respublikasining qonunchilik talablari shuningdek, bank uchun yangi bo'lgan xalqaro investorlarga ma'lumot berish va ochiqlik standartlariga ((ISSB Standarts, GRI Standarts, SASB, CDP va boshqalar) rioya qilindi.

Ushbu hisobot bilan xorijiy investorlar ham tanishishi munosabati bilan, xalqaro konsalting kompaniyasi KPMG mutaxassislari jalb qilindi. Ular yuqorida sanab o'tilgan xalqaro standartlarga muvofiq hisobotni puxta tayyorlashda yordam berdi.

Taqdim etilgan hisobotda bankning ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv sohasidagi (ESG) faoliyati haqida ham ma'lumot keltirilgan.

Hisobot quyidagi bo'limlardan iborat:

01 – Strategik sharh;

02 – Bankning operatsion va moliyaviy natijalari;

03 – Barqaror moliyalashtirish;

04 – Korporativ boshqaruv;

05 – Kadrlar va tashkiliy rivojlanish;

06 – Bankning jamiyat oldidagi mas'uliyati;

07 – Ekologik barqarorlik;

08 – Biznesni axloqiy yuritish;

Hisobot tayyorlash jarayonida taqdim etilgan ma'lumotlarning ahamiyati baholandi, solishtirma tahlil (benchmark) o'tkazildi, manfaatdor tomonlar (investorlar, hamkorlar, kreditorlar, ichki va tashqi talablar) bilan o'zaro aloqalar tahlil qilindi, mavjud hisobotlar, standartlar va tavsiyalar o'rganildi.

Hisobotda bankning korporativ boshqaruv, atrof-muhit va ijtimoiy sohadagi ishlari natijalari aks ettirildi. 2025 yil uchun asosiy ko'rsatkichlar Moliya hisoboti xalqaro standartlari (MSFO) talablariga muvofiq yuqori oshkoralikni ta'minlash uchun taqdim etildi.

Strategik hisobot bo'limida bankning asosiy raqobatbardosh ustunliklari va moliyaviy ko'rsatkichlari oldingi yil bilan solishtirilgan, sifat ko'rsatkichlari, bank reytinglari va bank guruhiga kiruvchi kompaniyalar ko'rsatkichlari ham inobatga olingan.

Barqaror moliyalashtirish bo'limida 2025-yilda Green Banking departamenti Sustainable Finance etib qayta tashkil etildi, bu uning funksiyalari kengayganini aks ettiradi: alohida «yashil» tashabbuslarga e'tibor qaratishdan barcha ESG komponentlarini qamrab oluvchi yanada kompleks yondashuvga o'tish, shuningdek, BMTning BRM (Barqaror rivojlanish maqsadlari)ga erishishga bo'lgan intilishni kuchaytirgan.

Hisobot bankga jalb qilingan KPMG konsalting kompaniyasi mutaxassislari yordamida, manfaatdor tomonlar bilan muloqotni oshirish va bank mutaxassislari xalqaro talablar hamda standartlarga (GRI) muvofiq hisobot tayyorlash bo'yicha o'qitish maqsadida tayyorlandi. Hisobot 100 dan ortiq sahifadan iborat bo'lib, bank Kengashi majlisiga taqdim etildi.

Hisobot uch tilda tayyorlangan va aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tasdiqlangandan keyin e'lon qilinishi ma'lum qilindi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vaziligi vakili J.Abdushukurov shuni ta'kidladiki, Bank foizlar va xodimlar xarajatlari bo'yicha rejalashtirilgan ko'rsatkichlarni oshirib yuborilganda, bir vaqtning o'zida foiz va nofoiz daromadlari bo'yicha rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga erisha olmaydi; bu xarajatlarning o'sishi va operatsion daromad dinamikasi o'rtasidagi muvozanat yo'qligini ko'rsatadi. Ish haqi byudjetidagi har qanday o'sish iqtisodiy jihatdan asoslanishi va operatsion daromadning mutanosib ravishda oshishi va Bankning operatsion samaradorligi bilan ta'minlanishi kerak.

Kun tartibidagi ikkinchi masala. “2025 yil yakunlari bo'yicha yillik hisobot loyihasi (ma'lumotni oshkor qilish talablari)” bo'yicha amaldagi qonunchilikka muvofiq, bankning rasmiy veb-saytida, respublika aksiyadorlik jamiyatlari axborot saytida hamda “Toshkent” Respublikaviy fond birjasining saytida aksiyadorlik jamiyatining yillik hisoboti tasdiqlangan standartlarga muvofiq e'lon qilinadi. Ushbu hisobotda barcha aksiyadorlik jamiyatlari uchun umumiy bo'lgan majburiy bo'limlarni o'z ichiga oladi.

“Bankning 2025 yil yakunlari bo'yicha yillik hisobotini tasdiqlash” masalasi ovozga qo'yildi.

Kun tartibidagi uchinchi masala – “Bank foydasini taqsimlash va Kengashning bitta mustaqil a'zosiga 2026-2027 korporativ yil uchun to'lanadigan mukofot va kompensatsiyaning eng yuqori miqdorini belgilash” masalasi bank Kengashi tomonidan 2026 yil 5 iyundagi yig'ilishida (2026/10-sonli bayonnoma) ko'rib chiqilgan. Masala yuzasidan bank Kengashi tomonidan tavsiya etilgan takliflari aksiyadorlar muhokama qilib ovozga qo'yildi.

Kun tartibidagi to'rtinchi masala – “2026-2027 korporativ yili uchun Bank Boshqaruvining a'zolariga to'lanadigan mukofotning maksimal miqdorini belgilash masalasi bank Kengashi tomonidan joriy yil 5 iyundagi yig'ilishida (2026/10-sonli

bayonnoma) ko'rib chiqilgan. Masala yuzasidan bank Kengashi tomonidan tavsiya etilgan takliflari aksiyadorlar muhokama qilib ovozga qo'yildi.

Kun tartibidagi beshinchi masala. – “Bank Boshqaruvi Raisi va a'zolari vakolatlarini tasdiqlash to'g'risida” masala, bank Kengashi tomonidan 2026 yil 5 iyundagi yig'ilishida (2026/10-sonli bayonnoma) ko'rib chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi Qonunning 79-moddasining 8-qismiga muvofiq, Jamiyat direktorining, jamiyat boshqaruvi a'zolarining, ishonchli boshqaruvchining huquq va majburiyatlari tegishincha ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarida, jamiyat ustavida hamda ularning har biri jamiyat bilan uch yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi deb belgilangan. Qonunga asosan, boshqaruv raisi va a'zolari bilan tuzilgan mehnat shartnomalari uch yilga tuzilgan bo'lsa-da, ularning vakolatlarini yillik asosda uzaytirish yoki bekor qilish masalasi har yili bankning yillik umumiy aksiyadorlar yig'ilishida ko'rib chiqiladi.

“O'zsanoatqurilishbak” ATBning boshqaruv raisi va a'zolari ro'yhati:

1. Akbarjonov Aziz Akbarjon o'g'li — Boshqaruv raisi;
2. Ergashev Anvarjon Abdumajitovich — Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari;
3. Xakimov Abdurashid Baxrom o'g'li — Boshqaruv raisi o'rinbosari;
4. Abduvaliev Sanjar Abdurahmanovich — Boshqaruv raisi o'rinbosari;
5. Umarov Davron Shavkatovich — Boshqaruv raisi o'rinbosari;
6. Gorokhov Evgeny Yurevich — Risk bosh direktori (CRO);
7. Xujamuratov Abbas Mardanovich — Buxgalteriya hisobi va hisobot departamenti direktori, bosh buxgalter;
8. Ekler Orsolya — Moliya bosh direktori (CFO);
9. Aminova Umida Pazildjanovna — Yuridik departamenti direktori.

Boshqaruv raisi va a'zolari vakolatlarini tasdiqlash masalasi yuzasidan aksiyadorlar tomonidan muhokama qilinib, ovozga qo'yildi.

Kun tartibidagi oltinchi masala. – “2026 moliya yili bo'yicha Bankda tashqi auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun tashqi auditor tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p xaq miqdorini belgilash” masalasi bank Kengashi tomonidan 2026 yil 5 iyundagi yig'ilishida (2026/10-sonli bayonnoma) ko'rib chiqilgan. Milliy qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq 2026 yilning birinchi yarim yilligi va 2026 yil yakunlari uchun xalqaro moliyaviy standartlariga muvofiq holda tuzilgan bankning yillik moliyaviy hisobotini xalqaro audit standartlariga ko'ra tashqi auditorlik tekshiruvini o'tkazish maqsadida elektron tender o'tkazildi. Ushbu tenderda g'olib bo'lgan Deloitte & Touche Audit Organization MChJ auditorlik tashkiloti tomonidan tender talablariga mos keladigan tijorat taklifi kelib tushgan. Masala yuzasidan bank Kengashi tomonidan tavsiya etilgan taklifi aksiyadorlar muhokama qilib, uni tasdiqlash uchun ovozga qo'yildi.

Kun tartibidagi yettinchi masala. – Keyingi yillarda mamlakatimizda zamonaviy bank xizmatlarini joriy etishga va xalqaro tajribani inobatga olgan holda bank tizimini rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Joriy yilning 27-mart kuni “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinib, bir necha qonunchilik hujjatlariga islomiy bank faoliyati bilan bog‘liq tegishli o‘zgartirishlar kiritilgan.

Qonunga kiritilgan qo‘shimchaga ko‘ra, islomiy bank faoliyatini amalga oshiruvchi bankning ustavida islomiy moliya operatsiyalarini amalga oshirishi, Islomiy moliya kengashining vazifalari, uning a‘zolariga qo‘yiladigan talablar va boshqa ma’lumotlar ko‘rsatilishi lozim. Ushbu masala yuzasidan aksiyadorlar tomonidan muhokama qilinib, ovozga qo‘yildi.

Kun tartibidagi sakkizinchi masala. – 2025-yilda o‘tkazilgan baholash natijalariga ko‘ra, Bank korporativ boshqaruv sifatining yuqori umumiy 91% ballini ko‘rsatdi, bu uning korporativ boshqaruv tizimining yetukligidan dalolat beradi. Shakllantirilgan boshqaruv arxitekturasini, tartibga solish tizimi va komplayens madaniyati Bankning korporativ boshqaruv amaliyotlarini xalqaro institutsional investorlarning kutganlariga moslashtirish va yaqinlashib kelayotgan xususiylashtirishga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan maqsadli sa’y-harakatlarini aks ettiradi.

Baholash davomida Bank amaliyotlari eng yaxshi xalqaro standartlarga mos keladigan yoki ularga yaqinlashadigan bir qator yo‘nalishlar aniqlandi:

Kuzatuv kengashi va qo‘mitalarining arxitekturasini: Zamonaviy ommaviy bank amaliyotlariga mos keladigan beshta ixtisoslashgan qo‘mitalardan iborat keng qamrovli tizim shakllantirildi. 2025-yil aprel oyida alohida raqamlashtirish va kiberxavfsizlik qo‘mitasini tashkil etilgan holda qo‘mitalarning qayta tashkil etilishi mintaqamiz uchun yetakchi amaliyot deb baholanadi;

Barqaror rivojlanish (ESG): Bank barqaror rivojlanish kun tartibini amalga oshirishda tizimli yondashuvni, jumladan, kreditlash va investitsiya faoliyatiga ESG-tamoyillarini integratsiya qilish, yashil moliyalashtirishni rivojlantirish va ESG-ko‘rsatkichlarini xalqaro standartlarga muvofiq oshkor qilishga tayyorgarlik ko‘rishni namoyish etadi;

Boshqaruv va Ijroiya boshqaruvi: Bank Boshqaruvi yuqori darajadagi professional malaka va operatsion samaradorlikni namoyish etib, tasdiqlangan strategiya yuqori sifatli amalga oshirilishini hamda Kuzatuv kengashi va uning qo‘mitalari bilan faol hamkorlik qilishni ta‘minlaydi;

Ichki nazorat tizimi: Bankning uchta himoya chizig‘i (risklarni boshqarish, komplayens va ichki audit) xalqaro standartlarga mos keladi va tizimlilik, mustaqillik va chuqur tahlil qilishni namoyish etadi. Ushbu masala yuzasidan aksiyadorlar tomonidan muhokama qilinib, ovozga qo‘yildi.

Kun tartibidagi to‘qqizinchi masala. Mazkur konsepsiya Bank bevosita yoki bilvosita 50 foiz va undan ortiq ovoz beruvchi aksiyalariga (ulushlariga) ega bo‘lgan sho‘ba va qaram korxonalarda boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan. Konsepsiyada uning maqsad va tamoyillari, Bank guruhining amaldagi tuzilmasi, asosiy funksiyalarni markazlashtirish yo‘nalishlari, jarayonlarni standartlashtirish, mas’uliyatni taqsimlash hamda investitsiya portfeli va risklarni boshqarish masalalari yoritilgan.

Alohida e’tibor guruhning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish, IT-infratuzilma, kiberxavfsizlik, HR-jarayonlar, buxgalteriya hisobi, yuridik xizmat va ichki audit

funksiyalarini markazlashtirish masalalariga qaratilgan. Shuningdek, investitsiya loyihalarini amalga oshirishning amaldagi jarayonlari, vakolatlar taqsimoti matritsasi (RACI), Bankning risk-appetiti va investitsiya faoliyatiga oid cheklovlarning asosiy qoidalari taqdim etilgan.

Ushbu masala yuzasidan aksiyadorlar tomonidan muhokama qilinib, ovozga qo'yildi.

Kun tartibidagi o'ninchi masala. Mazkur hisobot "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va mumkin bo'lgan yo'qotishlarni qoplash, shuningdek ulardan foydalanish uchun zaxiralarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizomning (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 2015-yilda 2696-son bilan ro'yxatga olingan) 51-bandiga muvofiq taqdim etilganligini ta'kidlandi.

2026-yil 1-yanvar holatiga bankning jami balansdan tashqari aktivlari qoldig'i 3 054 mlrd.so'mni tashkil etdi, bu 2025-yil 1-yanvardagi ko'rsatkichga nisbatan 220 mlrd.so'mga yoki 7 foizga kamaygan. Ushbu pasayish muammoli qarzlarni undirish, garovni realizatsiya qilish va ijro protsesslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar natijasida erishildi.

2025-yilda balansdan tashqari hisobvaraqlarga 450 milliard so'mlik muammoli aktivlar kiritildi. Shu bilan birga, ushbu balansdan tashqari hisobvaraqlardan 671 milliard so'mlik muammoli aktivlar olib tashlandi, shundan 586 milliard so'mi bevosita undirildi, 85 milliard so'mi esa hisobdan chiqarildi. Muammoli aktivlarni undirish rejasi 586 milliard so'mga yoki 91 foizga bajarildi. 2025-yil yakunlari bo'yicha bankning balansdan tashqari aktivlari portfelining qisqarishining ijobiy tendentsiyasi kuzatilmoqda, bu esa balansdan tashqari hisobvaraqlardagi aktivlarni kamaytirish va undirish bo'yicha ko'rilaotgan chora-tadbirlar samaradorligini ko'rsatmoqda.

Ushbu masala yuzasidan aksiyadorlar tomonidan muhokama qilinib, ovozga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 59-moddasiga asosan kun tartibiga kiritilgan masalalarni ko'rib chiqish natijalari va ovoz berish yakunlarini hisobga olgan holda Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi

QAROR QILDI:

1. Bank Kengashi va Boshqaruvining 2025 yil uchun hisoboti, bankni rivojlantirish strategiyasini bajarilishi bo'yicha ko'rilaotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisoboti tasdiqlansin **(1-ilova)**. Bank Kengashi va Boshqaruvining faoliyati qoniqarli deb topilsin.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 082 565 260 ovoz

"yoqlayman" – 233 082 565 260 ovoz, "qarshiman" – yo'q, "betarafman" – yo'q.

2. Bankning 2025 yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti tasdiqlansin **(2-ilova)**.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 082 565 260 ovoz

“yoqlayman” – 233 082 565 260 ovoz, “qarshiman” – yo‘q, “betarafman” – yo‘q.

3. Bank Kengashi va Boshqaruvi tavsiya etgan bank foydasini taqsimlash tartibiga rozilik bildirilsin.

Xisobot yilidagi foyda 1 851 746 323 052,30 so‘m:

- Umumiy zaxirani fondiga– 92 587 316 152,62 so‘m;
- Bankning imtiyozli aksiyalari bo‘yicha dividendlar to‘lashga – 1 406 000 000,00 so‘m (1 dona aksiyaga 3,80 so‘m, ya‘ni - 20%);
- Bankning oddiy aksiyalari bo‘yicha dividendlar to‘lashga – 0 so‘m;
- Taqsimlanmagan foydadan qoldiq – 1 757 753 006 899,69 so‘m.

Mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 082 565 260 ovoz

“yoqlayman” – 233 082 565 260 ovoz, “qarshiman” – yo‘q, “betarafman” – yo‘q.

3.1. Bank aksiyalari bo‘yicha 2025 yil uchun dividendlar to‘lash haqidagi bank Kengashining taklifi qabul qilinsin va quyidagi miqdorda dividendlar to‘lansin:

- Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha yillik 20% hisobidan (bir dona aksiyaga 3,80 so‘m) 1 406 000 000,00 so‘m;
- Oddiy aksiyalar bo‘yicha yillik 0% hisobidan 0 (nol) so‘m miqdorida.

Dividendlarni to‘lash aksiyadorlarning hisob varaqlariga pul o‘tkazish orqali belgilangan tartibda bank asiyadorlari umumiy yigi‘lishi qarori to‘liq rasmiylashtirilgandan so‘ng, lekin qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran 60 kundan kech bo‘lmagan mudadda, ya‘ni 10 iyuldan 29 avgustgacha amalga oshirilsin.

Mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 082 565 260 ovoz

“yoqlayman” – 233 082 565 260 ovoz, “qarshiman” – yo‘q, “betarafman” – yo‘q.

3.2. 2026-2027 korporativ yilda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Kengashining bitta mustaqil a‘zosiga mukofotlash va kompensatsiya xarajatlari, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Kuzatuv Kengashining 2026-yil 05-iyundagi 2026/10-sonli Qarori asosida belgilansin **(3-ilova)**.

Mazkur masala bo‘yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 082 565 260 ovoz

“yoqlayman” – 233 082 565 260 ovoz, “qarshiman” – yo‘q, “betarafman” – yo‘q.

4. 2026-2027 korporativ yil uchun bank Boshqaruvining shtat bo‘yicha belgilangan a‘zolariga haq to‘lashning maksimal miqdorini “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Kuzatuv Kengashining 2026-yil 05-iyundagi 2026/10-sonli Qarori asosida belgilansin **(4-ilova)**.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 082 565 260 ovoz

“yoqlayman” – 233 082 565 260 ovoz, “qarshiman” – yo‘q, “betarafman” – yo‘q.

5. Bank Boshqaruvi Raisi va Boshqaruv a'zolari (**5-ilova**) vakolatlari tasdiqlansin:

№	Bank Boshqaruvi a'zolarini familiya, ismi va sharifi
1.	Akbarjonov Aziz Akbarjon o'g'li - Boshqaruv Raisi.
2.	Ergashev Anvarjon Abdumajitovich - Boshqaruv Raisining birinchi o'rinbosari.
3.	Xakimov Abdurashid Baxrom ug'li- Boshqaruv Raisi o'rinbosari.
4.	Abduvaliyev Sanjar Abduraxmanovich - Boshqaruv Raisi o'rinbosari.
5.	Umarov Davron Shavkatovich - Boshqaruv Raisi o'rinbosari.
6.	Goroxov Yevgeniy Yur'evich- Risk Bosh direktori.
7.	Xujamuratov Abbos Mardanovich - Buxgalteriya hisobi va xisoboti departamenti direktori - bosh buxgalter.
8.	Ekler Orshoya (Ekler Orsolya)- Moliya bosh direktori.
9.	Aminova Umida Pazildjanovna - Yuridik departamenti direktori.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 082 565 260 ovoz

“yoqlayman” – 233 082 565 260 ovoz, “qarshiman” – yo‘q, “betarafman” – yo‘q.

6. 2026 moliya yili bo'yicha bankda tashqi auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun o'rnatilgan tartibda o'tkazilgan tender natijalari, Kengash va Boshqaruv takliflari asosida quyidagi auditorlik tashkilotli g'olib sifatida tasdiqlansin, ularga to'lanadigan eng ko'p xaq miqdori belgilansin va g'olib bilan shartnoma tuzilsin.

№	Tashqi auditorning nomi	Tender natijasi	To'lanadigan eng ko'p xaq miqdori
1.	“Deloitte&Touche” MChJ	G'olib tashkilot	3 625,0 млн сум (без НДС), НДС 435 млн сум

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 082 565 260 ovoz

“yoqlayman” – 233 082 565 260 ovoz, “qarshiman” – yo‘q, “betarafman” – yo‘q.

7. 2022 yil 24 iyundagi bank aksiyadorlari navbatdagi yillik Umumiy yig'ilishining 01/2022-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston sanoat-qurilish banki” aksiyadorlik tijorat bankining Ustaviga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar tasdiqlansin.

(6-ilova).

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 082 565 260 ovoz

“yoqlayman” – 233 082 565 260 ovoz, “qarshiman” – yo‘q, “betarafman” – yo‘q.

8. Bankda 2025 yil yakunlariga ko'ra o'tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini xalqaro mustaqil baholash natijalari (Auditor tashkiloti "PRICEWATERHOUSE COOPERS" MChJ) **(7-ilova)** tasdiqlansin.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 082 565 260 ovoz

“yoqlayman” – 233 082 565 260 ovoz, “qarshiman” – yo‘q, “betarafman” – yo‘q.

9. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Bank guruxini korporativ boshqarish konsepsiyasi **(8-ilova)** tasdiqlansin.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 082 565 260 ovoz

“yoqlayman” – 233 082 565 260 ovoz, “qarshiman” – yo‘q, “betarafman” – yo‘q.

10. Balansdan tashqari hisob raqamlardagi aktivlarni o'ndirish bo'yicha 2025 yil hisoboti inobatga olinsin.

Mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalari:

Ovoz berildi: 233 082 565 260 ovoz

“yoqlayman” – 233 082 565 260 ovoz, “qarshiman” – yo‘q, “betarafman” – yo‘q.

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB
Aksiyadorlari umumiy yig'ilishi raisi:



O. Isakov

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kotibi



D. Abdukadirov

Korporativ maslahatchi



K. Alimov

Sanoq komissiyasi



X. Sattarov

Protokol rasmiylashtirish sanasi “ ” iyul 2026 yil.